



Paradigmatic aspect of the verbalizers of the “bread” concept in Uzbek and English languages

Kamola BUZURKHANOVA¹

Andijan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2025

Received in revised form

10 February 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

25 March 2025

Keywords:

concept,
bread,
semantics,
lexeme,
paradigmatic,
syntagmatic,
cognition,
phraseology,
culture,
language,
Uzbek,
English,
worldview,
conceptualization.

ABSTRACT

This research explores the paradigmatic aspect of the concept “bread” in Uzbek and English linguistic systems. The study investigates the semantic structure of the lexeme non/bread and its derivatives, considering historical, cultural, and cognitive dimensions. It reveals that the word bread holds significant cultural, conceptual, and symbolic meanings in both languages. The analysis covers nominative fields, syntagmatic-paradigmatic relations, and the use of bread in phraseological expressions. Through comparative lexicographic and contextual analysis, the paper identifies shared and distinct features of the concept in both linguistic environments. The research also highlights how bread operates as a marker of identity, value, and worldview. Findings contribute to broader conceptual and cognitive linguistic theories by illustrating how everyday words reflect deeper semantic structures and sociocultural realities. Ultimately, the concept of bread emerges not merely as food but as a carrier of meaning embedded in cultural and linguistic consciousness.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss3/S-pp362-376>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O‘zbek va ingliz tillarida “non/bread” konsepti verbalizatorlarining paradigmatic aspekti

ANNOTATSIYA

Kalit so‘zlar:

konsept,
non,
semantika,
leksema,
paradigmatik,

Ushbu maqola o‘zbek va ingliz tillarida “non/bread” konseptining paradigmatic aspektini yoritadi. Tadqiqot non leksemasi va uning derivatlari orqali konseptning semantik tuzilmasi, madaniy, tarixiy va kognitiv jihatlarini tahlil qiladi. So‘zning oddiy yegulik sifatidagi ma’nosidan tashqari, u turmush

¹ Independent researcher, Andijan State Institute of Foreign Languages. E-mail: kamolabu@gmail.com

sintagmatik,
kognitsiya,
frazеologiya,
madaniyat,
til,
o'zbek,
ingliz,
dunyoqarash,
konseptualizatsiya.

tarzi, qadriyat va ongdagi aksni ifoda etuvchi vosita sifatida ham talqin etiladi. Non atrofida leksik birliklar, frazeologizmlar va ularning sintagmatik-paradigmatik aloqalari tadqiq etiladi. O'zaro solishtirma yondashuv asosida konseptning ikki tildagi umumiy va farqli jihatlari ochib beriladi. Non so'zi milliy o'zlik, axloqiy qadriyat va madaniy tafakkur timsoli sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot natijalari kognitiv lingvистика doirasidagi konseptual tahlillarga hissa qo'shadi. Xulosa sifatida, "non" konsepti shunchaki oziq-ovqat emas, balki xalq ruhiyatida chuqur ildiz otgan ma'no tashuvchidir.

Парадигматический аспект вербализаторов концепта «хлеб/bread» в узбекском и английском языках

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

концепт,
хлеб,
семантика,
лексема,
парадигматический,
синтагматический,
когниция,
фразеология,
культура,
язык,
узбекский,
английский,
картина мира,
концептуализация.

Исследование посвящено парадигматическому аспекту концепта «хлеб» в узбекском и английском языках. Анализируется семантическая структура лексемы non/bread и её производных в историческом, культурном и когнитивном контекстах. Установлено, что слово «хлеб» обладает не только значением пищевого продукта, но и выражает ценностные, символические и мировоззренческие смыслы. Рассматриваются номинативные поля, синтагматико-парадигматические связи и фразеологизмы с компонентом «хлеб». Сравнительный анализ позволяет выявить как общие, так и специфические черты концепта в обеих языковых картинах мира. Подчеркивается роль хлеба как носителя национальной идентичности и культурной памяти. Исследование вносит вклад в развитие когнитивной лингвистики, демонстрируя, как повседневные слова отражают сложные семантические и культурные структуры. Концепт «хлеб» представлен как важный элемент ментального и языкового пространства народов.

Har vaqt tildan muloqot vositasi sifatida foydalanamiz, fikr-o'ylarimizni shakllantirish va ifoda etishda tilga murojaat qilamiz. Insonlar o'rtasida kechadigan og'zaki yoki yozma ravishda kechadigan muloqot jarayoni albatta so'z va so'zlar shodasi (zanjiri) yordamida amalga oshadi va ular turfa ma'nolarini ifoda etadilar. So'z va boshqa lisoniy birliklar ular mansub bo'lgan xalq, millat, etnos turmush tarzi, ular yashayotgan muhit, makon va davr bilan bog'liq ekanligi bois ularning ma'nolarida xalq qismati, uning orzu-umidlari, xulq-atvori qadriyat va urf-odatlari, idrok tarzi kabilar aks etib boradi. Shu jihatdan so'z tilning fonologik, morfologik, sintaktik birliklari orasida markaziy o'rinni egallaydi. Lekin bugungi kun tilshunosligi nuqtai nazaridan semantika nafaqat leksik balki fonologik, morfologik, sintaktik sath birliklariga kognilingvistikada konseptual ma'no, psixolingvistikada psixologik ma'no, pragmalolingvistikada pragmatik ma'no kabilar ham aloqador ekanligini ko'rsatmoqda.

Har qanday jonli til sathlari yaxlit makrosistemaning mikrosistemalarini tashkillab, ularning miqyosi ichki va tashqi omillar ta'sirida kengayib (ba'zi hollarda torayib), muvofiq ravishda ma'no ko'lami ham rivojlanib, o'zgarib borishligini hisobga olib ularni ochiq sistemalar tarzida tasavvur qilish to'g'ri bo'ladi.

Demak, inson tili, uning mikrosistemalari birliklaridagi shakliy o'zgarishlar, ma'noviy kengayishlar hisobiga rivojlanib, takomillashib va boyib boradi. Bu albatta, olam va uning bo'laklari haqidagi bilimlar majmuini tashkillovchi konseptlar, ularning tarkibidan o'rin olgan yangi tushunchalar, belgi – xususiyatlarni muntazam ravishda lisoniy ifodasi va nominatsiyasini yaratish, muloqot jarayonida qo'llash ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi, deb o'ylaymiz.

Borliq va uning bo'laklari, narsa – hodisalarni nomlash, aniqrog'i narsa, predmet va tovush qobig'iga ega bo'lgan so'z reprezentant o'rtasidagi aloqa mohiyatini tushuntirishga bo'lgan dastlabki urinishlar antiq falsafa namoyondlari tomonidan amalga oshirilgan.

Ushbu nazariya vakillaridan bir guruhi predmetning nomi uning tabiatiga mos keladi, degan fikrni bildirsalar, yana bir guruhi predmetlarning nomi shartli kelishuv, ongli idrok orqali yuzaga keladi degan fikrni yoqlab chiqqanlar. GERALIT Efesskiy (e.a. 544–483 y.) va uning izdoshlari so'zni bilimlar tashuvchi vosita sifatida izohlagan bo'lsalar, Filona Aleksandriyskiy (E.I asri) so'zi bilimlar tashuvchi va bilimlar manbai vositasi sifatida qaraganlar.

Lekin ushbu nazariya vakillari so'zni muloqot instrumenti sifatida insonga tortiq qilingan narsa sifatida tushunadilar. Ularning fikricha, so'z material olamda o'zini inson ishtirokisiz voqelantira oladigan, timsol bo'la oladigan va tarix yo'nalishini belgilash qobiliyatiga egadir.

Lisoniy ma'noning germanevtika (grek. hermeneo – tushuntirib beraman, izohlayman tarjima qilib beraman) deb nom olgan konsepsiyasi uyg'onish davrida yuzaga keldi. Ushbu nazariya asosiy e'tiborni lisoniy ma'noni boshqalar uchun izohlab berishga emas, balki birinchi navbatda so'z, matnni ma'noning shaxsiy, ijtimoiy, subyektiv va obyektiv qirallariga e'tibor kuchaydi.

Germenevtikada lisoniy ma'noning tarixiy – madaniy, badiiy (estetik) va spekulyativ (falsafiy qimmat) aspektlariga e'tibor qaratiladi, chunki ularda inson yashayotgan olam haqiqatlarini anglash va tushunish borasidagi tajribalari muhrlangan bo'ladi. Ushbu nazariya tarafdorlari fikricha, so'z va matn shaxsiy ijodiy faoliyat mahsuli va hayotiy tajribalar umumlashmasi sifatida qaraladi.

Taniqli filosof va psixolog Vilgelm Diltey (1833–1911) til birliklari ma'nosini subyektiv – psixologik mazmun bilan tenglashtiradi. Shu bois u tilda obyektivlashgan psixik hayotni ko'radi.

Germenevtika vakillaridan yana biri Martin Xaydeggerda (1889–1976) masalaning boshqacha talqinini kuzatish mumkin. Uning nazariyasida ilgari surilgan qarashga ko'ra inson tilga nisbatan passiv, ya'ni tilni tushunishi shart emas, balki unga quloq tutatishi, undagi donishmandliklarni qabul qilishi kerak xolos. Bundan inson tilda gapirmaydi, aksincha, til insonda va u orqali gapiradi, degan tezis kelib chiqadi.

Umumiy va nazariy tilshunoslik asoslariga tamal toshini qo'ygan buyuk nemis olimi Vilgelm Gumboldt (1767–1835) tilning belgilar nazariyasiga asos soldi. Uning fikricha, so'z alohida tushunchaning belgisidir. So'z so'zlik maqomiga ega bo'lishi uchun tovush va tushuncha birligiga ega bo'lishi zarur. Boshqa so'zlar bilan izohlaydigan bo'lsak, so'zning tovush qobig'i predmet xususiyatlarini belgilab bermaydi. So'z til elementi sifatida

predmetga xos, uni nomlashga asos bo'lgan belgi tushunchasini ifoda etadi. Predmetga xos belgilar bir nechta bo'lishi ham mumkinligini ta'kidlaydi. V. Fon Gumbold tilda tashqi va ichki formalarni farqlaydi. Uning tashqi shakli tovushli qobiqqa ega bo'lib, u tilning material aspektini tashkillaydi. Tilning ichki shakli uning ideal, nomaterial aspekti bo'lib, u psixik, mental substansiyalardan iborat bo'ladi. Shu nuqtai nazardan u tilni material va ideal substansiyalar birligidan iborat deb hisoblaydi. Buyuk nemis olimi, shuningdek, fiziologik – akustik tovush va artikulyatsiya qilingan tovushlarni farqlaydi. Agar tovush biron narsani anglatish va fikr qo'zg'atish maqsadida yuzaga keladigan bo'lsa, demak u biron narsani anglatish funksiyasiga ega. Mazmuniy tovushlarni artikulyatsiya qilish insonlarga xos bo'lib u inson tafakkuri bilan chambarchas bog'liq. Mazmunli tushunchalar borliqdagi predmetlar guruhi umumiy belgilarini aks ettirgani bois insonlar bir – birlarini tushunadilar va muloqotga kirishadilar.

Slavyan tilshunosligining yorqin vakili Aleksandr Afanasyevich Potebnya (1835–1891) “Har qanday so'z istisnosiz ravishda uch elementdan tashkil topadi: birinchidan, nutq tovushi, ikkinchidan, tasavvurlar va uchinchidan, so'z ma'nosidan”.

Ma'no miqyosi tasavvur miqyosidan kengligini e'tirof etar ekan, A.A. Potebnya har qanday so'z yangi ma'no bilan birgalikda yangi tasavvur ham hosil qilishini e'tirof etgan holda so'zning tashqi formasi, mazmun va ichki formasini farqlaydi. Ichki forma deganda so'zning eng yaqin etimologik ma'nosini tushunadi.

A.A. Potebnya yangi tushuncha ifodasi uchun tovushdan foydalanish uchun avvalgi ma'nosi orqali belgilanadi. So'zning obyektiv va subyektiv ma'nolari haqida so'z yuritir ekan, shunday yozadi: “...So'zning yaqin ma'nosi xalqchil, uzoq ma'nosi elementlar soni va sifatiga ko'ra shaxsiydir”.

Bunday talqin tilning sotsil va individual tomonlari talqiniga hamohangdir.

Daslatb A.A. Potebnya ichki forma deganda so'zning etimologik ma'nosini nazarda tutgan bo'lsa, keyinchalik ushbu terminni so'zning yaqin ma'nosi va u bir qancha ma'nolar yig'indisidan iborat ekanligini nazarda tutgan holda ishlatadi.

Dastlab idrok etilayotgan narsa-hodisani nomlash uning yaqqol ko'zga tashlanib turgan belgilariga asoslangan. Ular orasida muhim hisoblangan belgi predmet obrazini tashkil etgan. Masalan, boychechak, подснежник, snowdrop piyozguldoshlarga mansub, ilk bahorda ochiladigan ko'p yillik o'simlik bo'lib, uni nomlashga bir necha belgilaridan biri” qor ketmasdan turib, erta bahorda unib chiqishi asos bo'lgan.

N.F. Alefirenkoning fikricha, “klassik semasiologiyani asosiy integrallashtiruvchi yutug'i nutqiy tafakkur paradigmasini yaratilishi bo'lib, uning g'oyalar tashuvchisi sifatida real borliq “tafakkur”, “ong”, “nutq” va “til” konseptlari yuzaga keldi. Ushbu paradigma doirasida qabul qilingan haqiqiy ong tili aksiomasi real borliqni til semantikasida ko'p darajali reprezentatsiyasini lingvistik modellashtirishga metodologik asoslar yaratdi. Bunday psixolingvistik qurilmalar kognitiv va introspektiv (emotsiyalar, baholar, intensiyalar) ong tomonidan idrok etilgan psixik hodisalar, insonning intellektual va emotsional hayotida til semanotik strukturasida qanday o'z aksini topilgini ko'rsatib beradi.

Bugungi kunga kelib ma'noning asl tabiati, mohiyati borasidagi masala dolzarbligicha qolmoqdaki, zamonaviy semasiologiya kun tartibida ma'noning qaysi aspektlari o'rganilishi masalasi turibdi. Bu yo'nalishda ikkita semiologik ta'limot yuzaga keldi va ularning birinchisi aks ettiruvchi (отражательная), ikkinchisi relyatsion deb atalmoqda. Birinchi ta'limotga muvofiq ma'no nominatsiya obyektini so'z va

frazeologizmning akustik obrazi bilan mustahkam aloqadorlikda ongimizda aks etishi tushuniladi. Relyatsion ta'limotning tub mohiyatini belgining predmetga, u haqidagi tushunchaga yoki boshqa bir belgiga munosabati tashkil etadi.

Ushbu ta'limotlar lingvistik darajaga ko'tarilgunga qadar semantika, mantiq va falsafa obyekti sifatida o'rganildi.

Semantika va u bilan bog'lik masalalar tarixiga nazar tashlasak, u yoki bu masalalar faylasuf mantiqshunos va tilshunoslar Yu.D. Apresyan, N.I. Kondakov, N.D. Arutyunova, Ye.S. Kubryakova, Yu.S. Stepanov, G.V. Kolshanskiy, V.M. Solnsev, Dj. Syorl, K. Tayk, Dj. Lakoff, R. Shenk, V. Lemon, Sh. Safarov, G'M. Xoshimov va boshqalar tomonidan turlicha talqin qilinganligiga guvoh bo'lamiz.

G.V. Kolshanskiy ma'noning aks ettirish funksiyasi haqida quyidagi mulohazani yozadi: "Tilda namoyon bo'lgan har qanday semantik kategoriya uning aks ettirish vazifasi bilan bog'liq.

V.M. Solsev bu borada shunday fikrni bildiradi: "Olam fikrlovchi miyada o'z aksini topadi, til olamini aks ettirmaydi u olamni aks ettirishda qatnashadi va olamni aks ettirish natijalarini o'z ma'nolariga joylashtirib boradi.

N.F. Alefirenko bunday talqin lisoniy ma'no mohiyati borasida avvalgi tasavvurlarni quyidagi ikki nuqtai nazardan chuqurlashtirishini yozadi: 1) ma'no asosida belgining ifodalanuvchi obyekt bilan aloqasi yotadi, lekin bu aloqa bevosita emas, aloqa tafakkurning u yoki bu formalari orqali bilvosita ravishda amalga oshadi; 2) ma'no inson faoliyatining turli shakllari bilan bog'liq; a) predmetik faoliyati jarayonida real borliq, predmet (hodisalar) lar o'rtasidagi obyektiv aloqalar, munosabatlar va o'zaro ta'sir harakatlari birgalikda ma'noda qaydini topadi; b) nutqiy faoliyatida, til aks ettirish jarayonlarida fikrlarni yuzaga keltiruvchi asosiy instrument, olamni bilishning asosiy shakli va u haqidagi bilimlarni shakllantiruvchi omil sifatida xizmat qiladi.

Lingvistikada uning keng tarqalgan va e'tirof etiladigan turlari to'g'ri ma'no, ko'chma ma'no, bosh ma'no, yasama (xosila) ma'no, erkin ma'no, bog'liq ma'no, nominativ ma'no, emotsional – ekspressiv ma'no. Bosh yoki yetakchi ma'no arxisema deb ham atalmoqda.

U. Tursunov, J. Muxtarov va Sh. Raxmatullaevlarning haqli ta'kidlashlaricha, har qanday jonli tilda leksik ma'noning hozirgi leksik ma'no va avvalgi leksik ma'no turlariga bo'lib o'rganish ham mumkin. Biz ularni sinxron va diaxron (yoki arxaik) leksik ma'no deb atashni taklif etgan bo'lar edik.

Leksik ma'no mohiyatini so'zlarning o'zaro aloqalari rakursida tavsiflash maqbul deb o'ylaymiz. Shu jihatdan professorlar N.Nurmanov va R.Rasulovlar leksik ma'noning nominativ (erkin) ma'no tipidan tashqari frazeologik (bog'liq) va sintaktik (xoslangan) ma'no tiplarini farqlaydilar.

Ularning to'g'ri ta'kidicha, frazeologik ma'no faqat barqaror birikma ichida yuzaga chiqadigan ma'no bo'lsa, sintaktik ma'no sintaktik qurshov bilan bog'liq ma'nodir.

Shuningdek, bu ikki o'zbek tilshunoslari leksik ma'no qatlamlarini nominativ ma'no, struktur ma'no (uning sintagmatik struktur ma'no, paradigmatic struktur ma'no) va konnotativ ma'no tiplariga bo'lganlar. Struktur ma'no, ularning yozishicha, leksik birliklarning til sistemasidagi o'rnini belgilovchi ma'no. Bu ma'no leksik birliklar munosabati orqali aniqlanadi.

Til sistemasida leksik birliklar o'zaro sintagmatik va paradigmatic munosabatda bo'ladi. Sintagmatik struktur ma'no leksik birliklarning ketma – ket munosabatini ko'rsatadi. Leksik birliklar o'zaro grammatik jihatdagina emas, semantik moslik asosida ham baholanadi.

Masalan, o'zbek va ingliz tilidagi *eat, drink, read, yemoq, ichmoq, o'qimoq* fe'llari tushum kelishigidagi ot bilan bog'lanadi va bu ot yeyish, ichish, o'qish mumkin bo'lgan narsalarni ifodalaydi. Masalan, *eat bread (an apple), drink tea (water), read a letter (fiction), non yemoq, suv ichmoq, ertak o'qimoq* va boshqalar. Bunday qovushuv asosida semantik moslik yotadi. Shu jihatdan: Men meva o'qidim, U kitob ichdi: I read fruits, He drank a book kabi gaplar mazmunan noto'g'ri bo'lib qoladi.

Paradigmatik struktur ma'no leksik birliklarning farqlovchi ma'nolarini o'z ichiga oladi va bu ma'nolari o'zaro yaqin bo'lgan leksik birliklarni bir – biriga qarama – qarshi qo'yish yo'li bilan aniqlanadi. Paradigmatik struktur ma'no leksik birlik qimmatini ham ko'rsatadi, qimmat leksemalarning farqlovchi belgilari asosida uning sistemadagi o'rnini belgilaydi.

Masalan, ingliz tilida *robber* so'zi zo'ravonlik va tahdid orqali kishi yoki joydan narsa o'g'iraydigan kishini bildirsa, *thief* so'zi boshqa bir kishidan yoki joydan biron narsani o'g'iraydigan kishini anglatadi. *Pickpocket* pul va boshqa narsalarni boshqa odamlar cho'ntagidan (odam ko'p joylarda) o'g'iraydigan odamni ifoda etadi.

Ko'rinib turibdiki, yuqoridagi ot leksemalar to'g'ri umumiy semasiga ko'ra bir – birlari bilan munosabatda bo'lsalar, *pickpocket* cho'ntak o'g'risi differensial semasiga ko'ra boshqalardan farqlanadi.

Bular leksik ma'no mazmun va ifoda (struktur funksional) aspektli hodisa ekanligini ko'rsatadi. Ularning birinchisi uchun semema ikkinchisi uchun nomema atamaları ham qo'llanilmoqda. Sema semalardan tashkil topadi va ular qavatlanish xususiyatiga ega.

Professor A.Nurmonov buni quyidagicha tasvirlaydi: 1) nominativ sema (denotativ, sigmatik ma'no); 2) aks ettirish (signifikativ) semasi; 3) struktur sema (belgining boshqa belgi bilan munosabatini ifodalovchi ma'no); 4) ifoda semasi (konnotativ sema); 5) amaliy sema (pragmatik sema);

Ifoda semasi konnotativ yoki uslubiy sema deb ham nomlanadi. Bunday sema leksemalarni u yoki bu uslubga xos ekanligini ko'rsatuvchi sema sanaladi. "So'zlovchining belgi orqali ifodalanayotgan obyektga bo'lgan munosabati pragmatik sema sanaladi. Pragmatik semada subyektiv baho (munosabat) aks etib u orqali ijobiy, salbiy yoki betaraflik baholari o'z ifodasini topadi. A.Nurmonov tomonidan taqdim etilgan misolga murojat qilamiz. "Nutqiy faoliyat ko'rsatish" semasi orqali umumiy paradigma hosil qiluvchi *gapirmoq, so'zlamoq, do'ng'illamoq, shang'illamoq, vaysamoq, g'ingshimoq* fe'llari bir – birlaridan ularda ijobiy, salbiy va neytral baho semasining mavjudligiga ko'ra farqlanadilar. Aniqroq aytadigan bo'lsak, ushbu qatordagi birinchi va ikkinchi leksemalar betaraflik, qolganlari salbiy bahoga egalar.

A. Nurmonovning to'g'ri ta'kidlashicha, struktur sema semantik nazariya nuqtai nazaridan belgilar sistemasidagi muayyan belgining boshqa belgiga munosabati orqali aniqlanadi. Bunga ko'ra sintagmatik va paradigmatic struktur semalar farqlanadi. Sintaktik struktur sema ma'lum lisoniy belgilarning boshqa belgi(lar) bilan qo'shnichilik munosabatida namoyon bo'ladi. Bunday munosabat valentlik deb ham atalmoqda.

Leksik birliklarning o'zaro qovushuvi so'z birikmalari tarkibida yuz beradi va bunday valentlik asosida leksik birliklarning mazmuniy muvofiqligi turadi. Bunday sema muvofiqligining buzilishi tasodifiy hodisa bo'lmay, u ko'pincha individuallik ko'rinishga ega bo'ladi. Leksemalar va boshqa birliklar o'rtasida bunday nomuvofiqlik ko'pincha nutq ta'sirchanligi, ifodaliligini ta'minlash maqsadlariga xizmat qiladi. Masalan, *a deafening silence* (quloqni kar qiladigan jimlik) *a good death* (yaxshi o'lim), *to rain cats and dogs* (mushuk va itlar yomg'ir bo'lib yog'moq) va boshqalar.

Sintagmatik struktur sema birdan ortiq leksemalarning sintaktik aloqaga kirishuviga asos bo'lardi va bunday aloqa, munosabat tufayli so'z birikmalari va gap (jumla)lar paydo bo'ladi.

H.Ne'matov va Rasulovlarning til birliklari o'rtasidagi munosabatlarning uch turi mavjud ekanligini e'tirof etadilar:

1. O'xshashlik (paradigmatik) munosabatlar
2. Pog'onali (ierarxik) munosabatlar
3. Qo'shnichilik (sintagmatik) munosabatlar

Olamning o'zi alohida paradigmalardan iborat bo'lganidek, til sistemasi birliklari o'rtasida ham nafaqat paradigmatik, balki sintagmatik munosabatlar kuzatiladi.

O'zbek tilshunos olimi A. Nurmonov leksik birliklar o'rtasidagi munosabatlarni ikki turga ajratadi, ya'ni a) bir sathga mansub bo'lgan birliklar munosabati va b) turli sathga mansub bo'lga birliklar munosabati. Birinchi tur munosabatlar paradigmatik munosabatlarni tashkillaydi. Ushbu munosabatni A. Nurmonov uyadoshlik munosabati deb ham ataydi.

Leksik birliklarni bitta uyaga birlashtirishning asosiy sharti umumiy barcha uya a'zolarida takrorlanishdir. Masalan, qo'y sher, bo'ri, echki leksemalarda hayvon umumiy ma'nosi mavjud. Agar buni paradigma (uya) deb ataydigan bo'lsak, uning tarkibi yana mikroparadigma (uya)larga bo'linishi mumkin. Masalan, yuqoridagi zoonimlarni yovvoyi, uy hayvonlari va boshqalarga bo'lish mumkin.

Har qanday semantik maydon paradigma a'zolari o'rtasida ma'nodoshlik (sinonimiya) munosabatlari mavjud bo'lishi va u bir nechta sinonimlik qatorlardan tashkil topishi mumkin. Shuni aytish joizki, bunday munosabatlar tilning grammatik sathida ham kuzatiladi: bunga professor M.A. Abduvaliyev tomonidan aniqlangan to'siqsizlikning ingliz tilida 13 ta, o'zbek tilida 12 ta sinonimik qatolarini misol sifatida keltirishimiz mumkin:

Ingliz tilida:

I read which ever book you give
I read which so ever book you give
I read no, matter which book you give
It doesn't matter which book you give to read
I read despite which book you give
I read any book you give

O'zbek tilida

Odamlar nima desa – desin, parvoyimga kelmaydi.
Odamlar nima desalar ham, parvoyimga kelmaydi.
Odamlar namaiki demasin, parvoyimga kelmaydi
Odamlar nima deyishidan qa'tiy nazar parvoyimga kelmaydi.

Har qanday tilda leksik birliklar uzual ma'nolardan tashqari okkazional ma'noda ham qo'llanilishi mumkin. Okkazional ma'nolar jonli tillar lug'atlarida qayd etilmagan bo'ladi va ayrim shaxsning yoki adibning ma'lum nutqiy vaziyatdan kelib chiqqan holda leksemaning semik tarkibiga yangi ma'no qo'shishdan iborat. Bunday ma'noni aniqlashda kontekstning roli katta bo'ladi. Masalan:

- Mehmon keladi. Hamma yoq top toza bo'lsin.
- Ho'p bo'ladi. Bozorlikni kim qiladi?
- O'zim.
- Siz cho'ntakni tozalarkansizda?
- Senchalikmas.

O‘TILda qayd etilgan tozalamoq fe‘lining uch ma’nolari orasida “ship -shiydom qilmoq” ma’nosi ko‘rsatilmaganligi uning okkazonal xususiyatidan darak beradi. Gap leksik birliklar semantikasi haqida borar ekan, ular monosemantik yoki polisemantik xususiyatga ega bo‘lishi mumkinligini alohida ta’kidlash lozim. O‘zbek tilida *guruch, tun, uchlamoq, uch (din etn), olchazor, randa*, ingliz tilida *breakfast, compliance, gristle, predictor mate, break, perfect, speaker* lar esa polisemant leksik birliklardir.

Konseptlarning o‘rganishning lingvokognitiv va modellastirish metodikasi konseptni obyektivlashtiruvchi lisoniy vositalar tahlilini talab etadi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, konsept mohiyatini ochib berish uni nomlovchi lisoniy vositalarining semantik – struktur jihatlarini o‘rganish va olingan natijalarni interpretatsiyalashdan boshlanadi.

Shu bois, o‘zbek va ingliz tillarida non (bread) konsepti so‘z – reprezentantlari va ularning turli derivatlari leksikografik tahlilidan boshlaymiz.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida (O‘TIL) da non leksemasining etimologiyasi forsha نان (non, oziq – ovqat) leksemasi bilan bog‘liqligi va uning ikki ma’nosi qayd etilgan. 1. Hamirdan tayyorlanib, tandir, o‘choq, tova va sh.k.da. pishiriladigan yegulik. Bug‘doy non, zog‘ora non. Shirmon non, bo‘lka non. (Kampir) non yasab bo‘lguncha, tandir qizidi. Keyin bir chekkadan yopdim. (Oybek, Tanlangan asarlar) 2. Umuman, yegulik – ichgulik, yashash, tiriklik uchun zarur narsa. – Matqovul aka, men non toparmikanman, deb qorin g‘amida maktab ochganim yo‘q, – dedi u bosig‘lik bilan. (M. Ismoilov, Farg‘ona tong otguncha.)

So‘ng tarkibida non leksemasi bo‘lgan oltita frazeologizmlar va ularning ma’nolari taqdim etilgan: non gadoyi, nonga zor, kambag‘al – qoshshoq, non yemoq. Biror narsadan foydalanib tirikchilik o‘tkazmoq, kun kechirmoq; non sindirish (yoki ushatish) etn. Nikoh to‘yi marosimlarining bir qismi: qiz tomon, ya’ni uning ota -onalari sovchi yuborgan tomonga o‘z roziligini bergach sovchilar keltirgan dasturxon ochilib, shu rozichilik belgisi sifatida non sindirilishi va to‘y bilan bog‘liq masalalarning belgilanishi, hal qilinishi, noni butun tirikchilik, yashash uchun zarur narsalari but, muhayyo, hech narsadan kamchiligi yo‘q, bekamu- ko‘st, to‘kis; noni yarimga biror sherik yoki raqobatchi tufayli topish – tutishi kamaygan, yetishmay qolgan, nonni tuya qilmoq, bировga tegishli haqning ma’lum qismini olmoq, o‘zlashtirmoq.

Mazkur lug‘atning 58-59-sahifalarda non komponenti yasama, qo‘shma so‘z va birikma shaklidagi birliklar va ularning semantikasi misollar bilan berilgan: Nonvoy ayn. novvoy nondon (جعبه نان – non saqlagich, nontovoq) non turadigan saqlanadigan quti, quti idish; Nonjiyda jiydaning yirik, serishira, go‘shtdor mevali turi; nonko‘r (نان ياكشilikni bilmaydigan, non ko‘r qiladigan).

Nonko‘rlik nonko‘r kishilarga xos hatti – harakat, ish; ko‘rnamaylik, nontepkilik; non – namak (نان و نمک – non tuz; mehmondo‘stlik) 1. Rizq – ro‘z, nasiba, ulush, hissa. 2. Yeyishlik- ichishlik narsa, ovqat; non – namak bo‘lmoq suhbatda bo‘lmoq, birgalikda ovqatlanmoq; biror o‘tirishda, mehmonda birga bo‘lmoq; Non – nasiba ayn. Non – namak; Nonpaz (نانواي – non pishiruvchi) novvoy; Nontepki ayn. Nonko‘r; nontepkilik ayn. Nonko‘rlik; nontopar non topadigan, daromad keltiradigan; nonushta ertalabki non-choy; nonushta qilmoq, ertalabki xo‘rakni yemoq- nonxo‘r (نانخور – non yeyuvchi, boqimanda) 1. Nonni yaxshi ko‘radigan, ko‘p non yeydigan. 2. Biror oila boshlig‘ining ta’minotida, qaramog‘ida bo‘lgan kishi; xo‘randa, jon. 3. Ko‘chma nafr. Tekintomoq, tekinxo‘r; Nonxo‘rak (نانخور – non yeyish vaqti) tar eski usuldagi maktabda tanaffus vaqti va shu vaqtdagi ovqatlanish; non – qatiq: non qatiq bo‘lmoq ayn. Osh – qatiq bo‘lmoq.

A.S. Xornbi muharrirligi ostida nashr etilgan “Oxford advanced learner’s dictionary” izohli lug’atida bread quyidagicha ta’riflangan: bread / bread noun (U) 1. A type of food made from flour, water and usually yeast mixed together and baked: a loaf/ piece of bread, white / brow/ whaled bread. 2. (old – fashioned, slang, money IDM take the bread out of sb’s mouth, to take away sb’s job so that they are no longer able to earn enough money to live. Bread and butter noun (U) 1. Slice of bread that have been spread with butter: a piece of bread and butter. 2. (informal) a person or company’s main source of income.

Bread – and – butter adj: (only before noun) basic; very important: Employment and taxation are the bread -and -butter issues of politics; bread basket noun (sing) (especially AmE) the part of a country or region that produces large amounts of food, especially grain, for the rest of the country or region; bread board noun a flat board used for cutting bread on; bread crumbs noun (pl) very small pieces of bread that can be used in cooking; breaded adj covered in breadcrumbs: breaded cod; bread fruit noun (C.U) (pl. bread fruit) a large tropical fruit with a thick skin that tastes and feels like bread when it is cooked; bread line noun (the breadline) (sing) (BrE) the level of income of very poor people; bread roll noun= roll; bread winner noun a person who supports their family with the money they earn. O’zbek va ingliz tillarida non (bread) konseptiga xos umumiy va differensial belgi – xususiyatlar, sematik mundariyasi, uning ikki xalq konseptosferasidagi o’rni kabilarni o’zbek va ingliz tillari lisoniy manzarasini tashkilovchi birliklarining semantik – kognitiv va sistem – struktur tahlili orqali aniqlashga yuzlanamiz.

O’zbek tilida non ot leksemasi uning boshqa leksik nominantlari orasida dominantlik xususiyatiga ega. Sodda tarkibli non so’zining bosh ma’nosi “hamirdan tayyorlanib, tandir, o’choq, tova va shu kabilarda pishiriladigan yegulikdir: Nonvoy non yopadi, somsapaz somsa; (Kampir) non yasab bo’lguncha, tandir qizidi.

Non semantik maydoni arxisemasi maqomidagi ushbu ma’no atrofida uning quyidagi semalari mavjud 2) tirikchilik uchun zarur narsa (yoki, hunar, kasb): – Matqobul aka, men non toparmikanman, deb qorin g’amida ochganim yo’q – dedi u Do’ppido’zlik mening nonim; 3) taom, oziq – ovqat, yegulik (rizq): Men non bermasam, ular nima qilar edi? Rizq, rizq- nasiba, rizq – ro’z: Yigit kishining noni ko’chada; 4). To’qchilik, farovonlik: Nonim bor nima g’amim bor, 5) pul: Duradgorlik orqasidan non topyapman; 6) boylik: Shu uyni sotsak nonli bo’lamiz, sotmasak tayyor nondan mahrum bo’lamiz, aka; 7) insonni yomon va zararli narsalardan saqlovchi (himoyalovchi) narsa: Qo’yningda non bo’lsa, jin ham urmaydi; 8) aziz, qadrli ne’mat : Non yerda yotadigan narsa emas; Nonni oyoq osti qilish gunoh, bolam.

Shuni ta’kidlash lozimki,, yuqorida zikr etilgan semalarning dastlabki uchtasidan tashqari non leksemasiga tegishli bo’lgan semalar mavjud lug’atlarda o’z aksini topmagan.

Mazkur ot leksemaning ma’nodoshi (sinonimi) yoki ma’nodoshlari aniqlanmadi. Uning *nanna* varianti asosan bolalar nutqiga xos bo’lib, u non va ovqat ma’nolariga ega. *Non* polisemant leksemasining antonim va omonimlari aniqlanmagani uning mazmun va ifoda plani simmetrik xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. *Non* tub ot leksemasining tayanch modeli *N* dir. Tahlillar non leksemasi uslubiy jihatdan betaraf (neytral) ekanligini ko’rsatdi. Boshqa so’zlar bilan aytganda , u nutqning barcha funksional uslublariga xos faolikka egaligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Endi non leksemasi asosida yuzaga kelgan yasama va qo'shma so'z shaklidagi leksemalarning semik, struktur va boshqa xususiyatlari tahliliga to'xtalamiz:

Fors tilidan o'zlashgan novvoy ot leksemasi non pishiruvchi, non sotuvchi ma'nosini anglatadi. Novvoy o'zbek tilidagi leksikografik ta'rifi "non yopish, pishirish va sotish bilan shug'ullanuvchi shaxs"dir. U non ot leksemasi va boy sifat leksemasi qo'shilishidan hosil bo'lgan bo'lib, u noni ko'p, nonga boy ma'nosini anglatadi. Novvoy *novvoy* so'zining so'zlashuv uslubiga xos dialektal varianti. Ushbu monosemant qo'shma so'zning tayanch modeli $N + Adj = N$ dir.

Novvoyning ma'nodoshi *nonpaz* bo'lib, u *non* va *paz* (fors tilida pishiruvchi) o'zak so'zlar qo'shiluvidan yasalgan. Ushbu qo'shma ot so'zning ikkinchi komponenti "pishirmoq", "pishmoq", "kuydirmoq", fe'llarining hozirgi zamon shaklidan yasalgan. Asosan, taom nomlariga qo'shilib, uni tayyorlash bilan shug'ullanuvchi kasb egasini bildiradi: mantipaz, oshpaz, xolvapaz, va boshqalar. Ushbu qo'shma so'zning modeli: $N+N=N$: Yapasqi novvoy har kuni peshin vaqtida ikkita shirmoy nonni boyga tashlab ketar edi.

Non yopish faoliyati bilan shug'ullanish faoliyati yoki kasbi novvoylik deb ataladi. Mazkur leksemaning ikkinchi ma'nosi non yopib sotiladigan joy, maskanni anglatadi: Qalay, novvoylikdan bir nima ortadimi?

Ro'molchani yelkaga solib, novvoylikka qarab yugurdim, – dedi Shum bola.

Novvoylik uya o'zak so'z (*nov + voy* va – *lik* suffiksi asosida yuzaga kelgan: $N+Adj+Suf=N$).

Novvoylik o'zining ikkinchi, non yopiladigan, pishiriladigan va sotiladigan ma'nosiga ko'ra novvoyxona, non markazi leksemalari bilan ma'nodosh hisoblanadi. Novvoyxona va non markazi novvoylikga nisbatan qo'llanish chastotasi va uslubiy ko'lam sezilarli darajada yuqori. Novvoylik tarixiy so'z shakli sifatida deyarli iste'moldan chiqib ulgurgan arxaik istorizmdir. Novvoyxona va non markazi $N+N+CN$ modeli asosida yuzaga kelgan: Qiyoslang: U novvoyxonada ishlaydi/= U non marakazida ishlaydi. O'zbek tilidagi *nondon*, *nonjiyda*, *nonko'r*, *non-namak*, *non-tuz*, *non-nasiba*, *nontepki*, *nonxo'r*, *non xo'rak*, *non-qatiq* qo'shma ot leksemalari ham asosan konkret va abstrakt otlar qo'shiluvidan $N+N$ modeli asosida shakllanganiga guvoh bo'ldik.

Nondon fors tilidan o'zlashgan bo'lib, *جعبه نان* so'zi non saqlagich, nontovoq ma'nosida qo'llangan. Nondan non quti, non tovoq, non idish ma'nodoshlariga ega. Nondonning yaqin ma'nodoshi non idish bo'lib, ular ma'lum ma'noda mavhumiy xususiyatiga ega. Non quti, non tovoq leksemalari non saqlanadigan va turadigan konkret narsani anglatadilar. Shu bois bo'lsa kerak, nondon va nonidish leksemalari kommunikatsiya jarayonida non turgun obyekt muloqot uchun ahamiyatsiz bo'lgan hollarda qo'llanadi: Otam nondonni ochib, bor nonni xurjuniga solib: Men shaharga ketdim, – degan holda uydan chiqdi.

Yana bir leksema *nonjiyda* bo'lib, u jiydaning yirik, sershira, go'shtdor, mevali turini anglatadi. Bizningcha, ushbu leksema jiyda daraxti mevasining etini yumshoq, qalin, oppoq, va to'yimli nonga qiyoslash, o'xshatish asosida yuzga kelgan: Ona Egashboy ota bilan E'zoxonni Botirali olib kelgan qora bulka va yong'oq, nonjiyda bilan siyladi.

Nonko'rlik qo'shma yasama so'z tarkibli leksema bo'lib, *nonko'r* kishilarga xos hatti-harakat, ish; ko'rnamaklik, nontepkilik, yaxshilikka yomonlik qilishlik, tuzini yeb, tuzlig'iga tupurish insonga xos salbiy ma'no ottenkalariga ega. Ushbu ot leksema asosida *nonko'r* sifat leksemasi turadi.

Nonko'r leksemasining etimologiyasi forscha نان *so'ziga* borib taqaladi. Ushbu olinma *so'z* salbiy, ya'ni yaxshilikni bilmaydigan, *nonko'r* qiladigan konnotatsiyaga ega. Ot leksema $N+Adj=Adj$ modeli asosida $N+Adj+suf=CN$ shaklida yuzaga kelgan.

Nonko'rlik nontepkilik, *ko'rnamaklik* kabi ma'nodosh leksemalarga sinonim bo'lsa, *nonko'r*, *nontepki* va *ko'rnamak* sinonimlariga ega. *Nonko'r* va *nontepki* salbiy subyektiv bahoga sabab bo'luvchi hayotiy (ziddiyatli, janjalli) vaziyatlarga tushgan insonlar *so'zlashuv* nutqida va nasriy asarlar uslubida uchraydi. Boy quturib baqirdi; – San *nonko'rsan*, man sani tuqqanim, jigarim, dedim. Ovqat berdim, kiyim berdim, bu – zulm emish!

Non – namak to'g'ri ma'noli polisemant leksema bo'lib, uning ikki ma'nosi farqlanadi va kelib chiqish asoslariga ko'ra olinma *so'z* hisoblanadi. U fors, tilidagi نان و نمک – non tuz ma'nosini anglatadi: 1. Rizq – ro'zi, nasiba, ulush, hissa; 2. Yeyishlik – ichishlik narsa, ovqat. Bu ma'nolar umumiy taom arxisemasining nutqiy ko'rinishlarini ifoda etadilar: U har gal shaharga tushganda, non – namak olib, o'sha yerga intilar, La'lining tuzalishidan umidvor bo'lar....edi.

Shuni ta'kidlash lozimki, non – namak bo'lmoq ko'makchi fe'li bilan birikib, turg'un birikma maqomiga o'tadi va frazeologik ma'no kasb etadi. Bu ham bo'lsa, suhbatda bo'lmoq, birgalikda ovqatlanmoq; biror o'tirishda, mehmonda birga bo'lmoq: Sodiqjon aka bilan biz bir necha bor non – namak bo'lganmiz; U kishi davrning guli (Gazetadan). Gap mazmunidan ko'rinib turibdiki, ushbu frazemaning asl ma'nosi birgalikda ovqatlanmoqdir. Aynan shu nuqtai nazardan tuz – namak bo'lmoq frazemasi non – namak bo'lmoqning sinonimi deb hisoblash mumkin. Qiyoslang: Yo'lni yashnatayotgan odamlar yonida bo'lish ishtiyoqi uni (yarani) cho'lquvar bilan tuz – namak (yoki non = namak) bo'lib yashashga da'vat etdi. Funksional – uslubiy xususiyatlariga ko'ra hozirda tuz – namak bo'lmoq non – namak bo'lmoqqa nisbatan faoldir.

Non – namak, non – nasiba, osh – non, non – nasiba, tuz – nasib(a), tuz-namak kabi leksik birliklar bilan sinonimik munosabatiga umumiy ovqat, taom integral semasi orqali bir qatorga birlashadilar.

Tuz – namakning birinchi ovqatning tuzlanganlik darajasi, tuzining past – balandligi differensial ma'nosi bilan farqlanadi. Shuningdek, non – nasiba, tuz – nasib(a) leksemalari boshqalardan tarkibida Olloh tomonida beriladigan rizq – ro'z, nasiba differensial semasi mavjudligi bilan farq qiladi. Qiyoslang: Bilmayman, tuz – nasib (non – nasiba) qayerga tortar, menda yo'qdir, bova, sira ixtiyor (Fozil Yo'ldosh o'g'li). Yuqoridagi qo'shma ot leksema maqomidagi so'zlar umumiy $N+N=CN$ model asosida yuzaga kelib non, tuz elementlari so'z tarkibida birinchi pozitsiyani, boshqa elementlar keyingi pozitsiyani egallaydilar. *Osh – non* leksemasida tartib o'zgarish bilan (non- osh) “oziq – ovqat” semasi o'zgarmagan kuzatiladi: Muhabbat osh – non bo'lib qorin to'yg'azmaydi.

Yana bir fors tilidan o'zlashgan nonxo'rak (forscha نانخور -non yeyish vaqti) arxaik so'z eski usuldagi maktabda tanaffus vaqti va shu vaqtdagi ovqatlanish ma'nosini anglatadi. Ushbu so'z forscha non va xo'rak (ma'nosi ovqat, oziq, yemish, ishtaxa) ot leksemalarining o'zaro qovushuvi $N+CW$ modeli asosida hosil bo'lgan. Bunday qovushuvi yuqoridagi yangi ma'noni paydo qilgan: Bugun tushda nonxo'rakka uyga kelmas ekan. Ko'rinib turibdiki, nonxo'rlik so'zi badiiy asarlar matnida kam bo'lsa – da uchrab turadi.

Nonxo'r polisemant leksemasi etimologik jihatdan forscha نانخور *so'ziga* bevosita aloqador bo'lib, u non yeyuvchi, boqimanda ma'nosiga ega. Ushbu qo'shma so'z non ot va sifat so'zlar negizida yuzaga kelgan. 1. Nonni yaxshi ko'radigan, ko'p yeydigan. 2. Biror

oila boshlig'ining ta'minotida, qarmog'ida bo'lgan kishi, xo'randa, jon, 3. Ko'chma. nafar tekintomoq, tekinxo'r. Masalan, Non xo'rga non, oshxo'rga osh (Maqol); Oilam oltita nonxo'rdan iborat; O'z uyida bir nonxo'r ortishi, mahdumga, albatta yoqmas edi.

Misollar tahlili Nonxo'rning birinchi va ikkinchi ma'nolari ijobiy uchinchi ma'nosi esa salbiy konnotatsiyaga ega ekanligini ko'rsatdi. Nonxo'rning uchinchi ma'nosi ikkilamchi, bog'li ma'nodir. Tekintomoq, tekinxo'r leksemalari aynan shu sema asosida ma'nodoshdirlar.

Mazkur leksemaning birinchi ma'nosiga ko'ra hali lug'atlarda o'z aksini topmagan, lekin so'zlashuv muloqotida uchraydigan nonqopi sifat so'z turkumiga mansub leksema bilan ma'nodoshlik munosabatida bo'ladi. Nonxo'rning uchinchi semasiga ko'ra nonqopi ot leksemasiga sinonim hisoblash mumkin:.. Haligi non -qopi bola qani?; Nonqopilar, tur o'rningdan, ishla!

Shuni alohida ta'kidlash joizki, sinonim leksik birliklarga baho berishda ularning semantik maydondagi o'rniga, ya'ni qo'llanishidagi faollik samarasi, kontekstual – uslubiy jihatlari, etnolingvistik va psixolingvistik xususiyatlari kabilarni e'tiborga olish ular borasida chuqur va atroflicha bilimlarga ega bo'lishni ta'minlaydi.

Non konsepti leksik qatlami ifodalarini mavzuiy tasniflash ham joiz, deb hisoblaymiz. Professor E. Begmatov fikriga qo'shilgan holda, tematik guruh (yoki qator deganda bir umumiy mavzu, g'oya atrofiga birlashgan (uyg'unlashgan) so'zlar majmuini, yig'indisini tushunamiz).

Non leksik – semantik maydoni uzvlari o'rtasida uyg'unlik munosabatini belgilashda arxisema (umumiy ma'no) belgisi hisobga olinada. Chunki, professor A.Sh. Sobirovning to'g'ri ta'kidlashicha, "leksemalarni bitta uyaga birlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilayotgan umumiy ma'no shu uyaga kirgan barcha a'zolarida takrorlanishi shart". Masalan, kulcha, patir, ushoq, bulka, teshik kulcha (ingliz tilida loaf, crumb, crust, bun, bagel, cake, toast, toaster, bo'lka, булочка, лаваш, хлеб, хлебница, хлебопёк, хлебороб va boshqa leksemalarda non umumiy ma'nosi takrorlanmoqda. Bu hol taom nonlarini anglatuvchi non qovurma, nonpolov, non shashlik leksemalarida ham kuzatiladi.

Non konseptining leksik eksplikatorlari o'zaro sintaktik munosabatiga kirishadilar. Nutq jarayonida u yoki bu leksik lisoniy birlik tanlovi o'zbek tilining bugungi kunda amal qilayotgan ichki tuzilish qonuniyatlariga muvofiq ravishda amalga oshadi. Bunday so'zlarning gap va jumlarar voqelashuvi va boshqa so'z bilan kombinatsiyaga kirishishi xususyatini sintaktik valentlik deb tushunamiz. Leksemalar o'rtasidagi turli sintagmatik munosabatlar chog'ida semantik valentlik ham ro'y beradi. Buni non leksemasining o'zbek tilidagi kombinatsion imkoniyatari misolida ko'ramiz.

Tahlillar non leksemasi til va nutqda quyidagi fe'llar bilan birikishi mumkinligini ko'rsatdi: yemoq, chaynamoq, tishlamoq, sindirmoq, ushatmoq, kesmoq, yutmoq, olmoq, sotmoq, yopmoq, uzmoq, yasamoq, chekichlamoq, suvlamoq, tarqatmoq, pishirmoq, yog'lamoq, qovurmoq, to'g'ramoq, tanovul qilmoq, yopishtirmoq, gullamoq, qaramoq, qizarmoq, kuymoq, pishmoq. Non va fe'llar birikuvchi N+V va N ni +V so'z birikmasi modellari asosida yuzaga kelmoqda. Jumla tarkibida subyekt predmet yoki obyekt – predmet munosabatlarini namoyon etadilar (Modeli S+P va O+P). Ko'rinib turibdiki, obyektlik ko'rsatkichi bo'lgan – ni shakl va ma'no ifodasi uchun obligator emas. Lekin so'nggi uchta fe'llar (gullamoq, kuymoq, pishmoq) hech qanday morfologik ko'rsatkichlarsiz ega – kesim munosabatlariga kirishadilar. Bunday hollarda ko'makchi fe'llar ham qo'llanishi mumkin (gullab ketmoq kuyib ketmoq, qizarib ketmoq, pishib qolmoq).

Non leksemasi unga qo'shni o'z toifasidagi va boshqa leksemalar bilan atributiv aniqlovchi aniqlanmish munosabatiga kirishishi mumkin. Bu hol *non* mahsulotlari turi (patir *non*, kulcha *non*, bulka *non* lavsh *non*), ingredientlari (qiy mali *non*, do'lta *non*, go'shtli *non*, piyozli *non*, qoqili *non*, gijda *non*, obi *non*, sutli *non*, yog'li *non*, sedanali *non*, bug'doy *non*, arpa *non*, jo'xori *non*, jizzali *non*, qiyomli *non*) shakli (katta, kichik, dumoloq, to'rtburchak, uzun), sifati (ko'pigan, ko'pimagan, kuygan, pishgan, pishmagan, xomsiq, quritilgan), tami (mazali, totli, bemaza, sho'r, tuzsiz, tuzli), rangi (oq *non* olmoq, qora *non* olmoq) kabi leksemalar bilan sintagmatik aloqasida ko'rinadi. Bundaylar *Natr + N*, *Natr+li+N*, *Vp1+gan/magan+ N*, *Pref+N+N*; *Natr + suf+N*, *Atr+N+V* kabi modellar asosida yuzaga keladi.

So'z birikmasi tarkibidagi ma'nolari voqelantiruvchi va o'zaro aloqa o'rnatishda kelishik qo'shimchalari (-ga, -ning,-dan,-ni, – da kabi, ko'makchilar (bilan uchun, haqida to'rida, boshqa, tashqari, bo'lak, tomon) egalik qo'shimchalari (-m, – im, – ng, – ing, – i, kabilar) muhim analitik va sintaktik funksional shakllar rol o'ynaydi. Masalan: *nonni* nonga yuzlanmoq, *non* bilan yemoq, *non* uchun ishlamoq, *noniga* tegmoq, *nonimizning* ta'mi kabi misollardan ko'rinib turibdiki, o'zbek tilida leksemalararo munosabatlarning grammatik funksional (sintaktik) shakllari leksema tarkibida ketma – ketlikda joylashadilar (shaxs, egalik).

O'zbek tili materiallari tahlili ko'makchili so'z birikmalari bosh kelishikdagi *non* ot leksemasi bilan qo'llanuvchi *bilan uchun* jo'nalish keligidagi *non* ot leksemasi bilan qo'llanuvchi (qarab, tomon), chiqish kelishigidagi *non* leksemasi bilan (so'ng, keyin, boshqa, tashqari) qo'llanadi *gan* va ko'makchi ot vazifasidagi so'zlar bilan qo'llanuvchi ustida, old bosh *non* leksemasi deb tasniflash imkonini berdi.

Bunday erkin birikmalar *N + Aux: word+V*; *Nga + V*, *N ning+N*; *N dan + AuxW*; *N+Aux+N* kabi modellar asosida yuzaga keladilar.

Non leksemasi frazeoemalar tarkibida ham kelishi kuzatildi: *non(i)ni* tuya qilmoq (bo'sh – bayovligidan foydalanib, aldab – sulda xaqini o'zlashtirmoq), *non* yemoq (biror narsadan foydalanib tirikchilik qilmoq, kun kechirmoq), *non* sindirish (ushatish) (etn. nigoh to'yi marosimlaridan bir qismi; so'vchilar keltirgan dasturxon ochilib shu rozilik belgisi sifatida *non* sindirilishi va to'y bilan bog'liq tadbirlarni belgilanishi, hal qilinishi), *noni* butun (tirikchilik, yashash uchun zarur narsalari but; muhayyo, hech narsadan kamchiligi yo'q, beka – ko'st, to'kis), *noni* yarimta (biror sherik yoki raqobatchi tufayli topish -tutishi kamaygan, yetishmay qolgan), *osh* – qatiq bo'lmoq (biror shaxs bilan bordi keldi qilmoq, yaqin munosabtda bo'lmoq, *non* – namak bo'lmoq (suhbatda bo'lmoq, birgalikda ovqatlanmoq, biror o'tirishda, mehmonda birga bo'lmoq) va boshqalar.

Non komponentli frazeoemalar ham lug'aviy birlik sanaladi. Frazeoema tashqi ifoda plani va leksik tarkibiga ko'ra erkin so'z birikma yoki gapga teng bo'lish mumkin. Patir ushatish (unashish, unashtirish marosimi), hamir (ning) uchidan patir(katta narsaning, ishning boshla(n) masi, dastlabki kichik bir qismi, ulushi), *nonni* nanna demoq (katta bo'lgani bilan yosh bolalarcha fikrlaydigan), *nonimni* tuya qilishdi (gap frazeoema) va boshqalar. Bunday frazeoemalar yaxlit holda ko'chma ma'no ifoda etmoqdalar. Bunday o'zbek xalqi va tiliga xos birliklarni lakuna frazemalar deb atash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bunday *non* komponentli frazeologizmlar o'zbek xalqi umumiy leksik fondidan qadim qadimlardan zamonlardayoq o'rin olib ulgurgan va hozirda ham qo'llanib kelayotgan birliklardir. Shu bois ularning tarkibidagi leksik birliklarni va strukturasini

o'zgartirish mumkin emas. Biroq, shuni aytish lozimki, badiiy asarlar matnida jonli so'zlashuv nutqida ifodalilikni, obrazlilikni ta'minlash maqsadida bunday talablardan chetlatish kuzatiladi. Shuni aytish lozimki, bunday frazemalarning asl mazmuni o'zgarmaydi. Qiyoslang: Pulni pul chaqiradi – noni non chaqiradi.

Ikkinchi frazeologik tipdagi gapda qo'llangan non leksemasi birinchi gapdagi pulga kontekstual sinonim sifatida qo'llangan. Yuqorida aytilgandek, bu toifa FB larning semantik tarkibida frazeologik ma'nodan tashqari uslubiy (ijobiy, salbiy) bo'yoq ham mavjud bo'ladi.

Non komponentli frazeologizmlarni qaysi so'z turkumiga mansubligiga ko'ra fe'l frazeologizmlar (non yemoq), ot frazeologizmlar (non (patir) sindirish), sifat frazeologizmlar (noni yarimta, noni butun), turlari aniqlandi.

O'zbek tilidagi non tarkibli FB lar kishilarning moddiy ahvoli, miqdor, harakat, belgi kabi ma'nolarini farqlaymiz. Masalan, non tarkibli FB lar miqdor (narsa – buyumning miqdor belgisi)ni ifodalaydi: hamir uchidan patir: Yoki noni butun, noni yarimta kishilarning moddiy ahvoli darajasini ifodalaydilar; Non ursin! Qarg'ish, qasam ma'nosida, non namak bo'lmoq frazeologizimli mehmondorchilik ma'nosida qo'llanadigan frazemlardir.

FB lar tarkibini tashkillovchi non va boshqa leksik birliklar o'rtasidagi aloqalar modelining uch turini farqladik:

1. Non (km)+BLB(TM)
2. Non (km) + BLB (km)
3. Non (xm) + BLB (xm)

Tahlillarga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, non konsepti nominativ maydonini tashkillovchi uzvlar til tizimining turli sathlariga mansubligi, ularning semantik mundariyasi miqyosi keng va turli – tuman ekanligi, nominativ birliklar strukturasi va miqdori ko'p ekanligi uning o'zbeklar uchun kommunikativ jihatdan relevantligidan dalolatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Begmatov, E. Sh. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 116–125.
2. Собиров А.Ш. Ўзбек тили лексикасининг айтем-структур таҳлили // Biomonitoring, 2022. – Б. 157.
3. Ойбек. Болалик / Ойбек. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. – 64 б.
4. Қодирий А. Меҳробдан чаян / Абдулла Қодирий. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – 128 б.
5. Ғулом Ҳ. Машъал / Ҳамид Ғулом. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – 240 б.
6. Акбарий С. У ҳаётни севади / Сирожиiddин Акбарий. – Тошкент: Ёш гвардия, 1977. – 72 б.
7. Ашуров Т. Оқ от / Тоҳир Ашуров. – Тошкент: Ёш гвардия, 1983. – 80 б.
8. Айний С. Эсдаликлар / Садриддин Айний. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1960. – 320 б.
9. Нурматов А. Танланган асарлар. III жилд / Абдулла Нурматов. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 160 б.

10. Ойбек. Танланган асарлар. 6 жилдлик. 1-жилд / нашрга тайёрловчилар: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. – 456 б.
11. Ғулом Ғ. Шум бола / Ғафур Ғулом. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2014. – 176 б.
12. Hornby A. S. Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English. – 6th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2000. – 1336 p. – P. 80.
13. Исмойилӣ М. Фарғона тонг отгунча. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 432 б.
14. Ойбек. Қутлуғ қон / тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Т. Қудратов. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – 132 б.
15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тўртинчи жилд: Е. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2020. – 57 б.
16. Abduvaliyev M.A. "To'siqsizlik" konsepti nominativ maydonini tashkil etuvchi birliklarning kognitiv, lingvomadaniy va lingvopragmatik xususiyatlari (ingliz, o'zbek va boshqa tillar misolida) : Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Andijon, 2023. – 94 b.
17. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари – Тошкент.: Ўқитувчи, 1995.-б.14-15
18. Нурмонов А. Танланган асарлар III жилд. Е – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 154-155.
19. Виноградов В.В. Основные типы лексических значений слова // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977. – С. 182–189.; Фомина М.И. Лексика современного русского языка. – М.: Просвещение, 1972. – С. 32.
20. Турсунов У., Мухтаров Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 89–101.
21. Нурмонов А., Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – Б. 26.
22. Кольшанский Г.В. Некоторые вопросы семантики языка в гносеологическом аспекте // Принципы и методы семантических исследований. – М.: Наука, 1976. – С. 7.
23. Солнцев В.М. О лингвистических мифах // Знание языка и языкознание. – М.: Наука, 1991. – С. 63.
24. Потебня А.А. Из лекций по теории словесности. – Харьков: Тип. М. Зильберберг и Сыновья, 1905. – 328 с. – С. 123.
25. Потебня А.А. Мысль и язык. – Харьков: Изд. А.А. Поповой, 1913. – 324 с. – С. 145–146.
26. Алефиренка Н.Ф. Спорные проблемы семантики. – М.: Гнозис, 2005. – 208 с. – С. 11–12.
27. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Лингвострановедческая теория слова // Язык и культура: Лингвострановедческий аспект. – М.: Русский язык, 1980. – С. 192–193.
28. <https://ru.wikipedia.org>
29. <https://uzbaza.uz/til-haqida-maqollar>